



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024”

BADIIY ASARLARDA FRAZEMALARNING QO‘LLANILISHI (SHUHRATNING “JANNAT QIDIRGANLAR” ROMANI ASOSIDA)

Yo‘lchiyeva Odina Alisher qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘quvchisi

Maxammadiyeva Dildora Baxtiyorovna

Guliston shahar 18-sonli DMTT tarbiyachisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shuhratning “Jannat qidirganlar” romanidagi frazeologik birliklarning qo‘llanilishiga oid fikr-mulohazalar keltirilgan. Badiiy asarda obrazlilik, ta‘sirchanlikni ta‘minlashda frazemalarning o‘rni, qahramonlarning his-tuyg‘ulari hamda ularning nutqiga xos tasviriylikka erishishdagi yozuvchining so‘z mahoratiga ham e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, frazemalarning lug‘aviy ma‘nolari bilan bog‘liq jihatlarga munosabat bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *roman, asar, frazema, ibora, tahlil, satr, obraz, voqea, ta‘sirchanlik, ichki kechinma, so‘z mahorati.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ (ПО РОМАНУ ШУХРАТА «ИСКАТЕЛИ РАЯ»)

Аннотация: *В данной статье представлены мнения об употреблении фразеологизмов в романе Шухрата «Искатели рая» популярного писателя Узбекистана Шухрата. В художественном произведении уделяется внимание роли словосочетаний в обеспечении образности, впечатляемости, переживаний героев, словесному мастерству писателя в достижении образности, характерной для их речи. Обсуждаются также аспекты, связанные с лексическими значениями словосочетаний.*

Ключевые слова: *роман, произведение, фраза, словосочетание, анализ, строка, образ, событие, впечатление, внутреннее переживание, словарный запас.*

USING PHRASES IN WORKS OF FICTION (BASED ON SHUKHRAT’S NOVEL “SEEKERS OF PARADISE”)

Abstract: *This article presents opinions on the use of phraseological units in the novel “Seekers of Paradise” by the popular writer of Uzbekistan Shukhrat. In a work of art, attention is paid to the role of phrases in providing imagery, impressiveness, the experiences*



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

of the characters, and the writer's verbal skill in achieving the imagery characteristic of their speech. Aspects related to the lexical meanings of phrases are also discussed.

Key words: *novel, work, phrase, phrase, analysis, line, image, event, impression, internal experience, vocabulary.*

O'zbek adabiyotining yorqin hamda mahoratli vakillaridan biri Shuhratning "Jannat qidirganlar" asari o'quvchlarining qalbida o'z o'rnini topib ulgurgan, chunki undagi milliylik, insonga xos bo'lgan fazilatlar bilan birga illatlar va bir-biridan qiziq, tub burulishlarga ega qahramonlar taqdirlari romanning haqiqiy hayot bilan chambarchas bog'lab turadi. Shu ma'noda romanga xos bunday jihatlar ochib berilishida frazema, ya'ni iboralarning qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

"Frazeologizmning semantik tuzilishi (ma'no imkoniyatlari) frazeologik ma'no (barqaror birikma asosida ifodalanadigan axborot) va qo'shimcha ma'no bo'yoqdorligidan iborat bo'ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Frazeologik ma'no obrazlilik bilan leksik ma'nodan farq qiladi." [1, 8] Ya'ni roman matnida ma'no obrazlilikini ta'minlashda frazemalarning imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Bu esa asarning tiliga o'ziga xos joziba baxsh etgan.

"Tildagi iboralarning asosiy qismi sematik jihatdan insonga, uning biror xatti-harakatini izohlashga qaratilgan: ular insonning fizik, psixologik, axloqiy-etik, intellektual xususiyatlarini baholaydi, insonning ijtimoiy hayotini, kasbini, yoshini, hayotiy tajribasini, qarindoshlik aloqalarini xarakterlaydi" [2, 8]. Qahramonlarning real hayotdagi kabi fizik, psixologik, axloqiy-etik, intellektual xususiyatlarini baholashda, ijtimoiy hayotini, kasbini, yoshini, hayotiy tajribasini, qarindoshlik aloqalarini xarakterlashda frazemalarning o'rni mazkur asarda muhim ekanligini ko'rsatadiki, quyida ularga xos mulohazalarimizni keltiramiz:

Teshaboy-ku qo'yning og'zidan cho'p olmagan yuvosh odam. [3, 57]

Yuqoridagi frazema "nihoyat darajada beozor, mo'min" [1,444] ma'nolarini anglatadi. Bu ibora Teshaboy obraziga, ya'ni asardagi bosh qahramon A'zamning otasiga nisbatan qo'llangan. Asarda Teshaboy o'g'li A'zamnigiga meva tashlab ketish uchun kirib, lekin kelini o'g'lining uyda emasligini aytgan epizodi bor. Ya'ni otasi biroz o'tirib, nevarasi Surayyo bilan o'ynab, uyiga ketgach, biroz vaqt o'tib A'zam kirib keladi. Xotini uyga dadasining kelganligini aytsa, o'g'li yana mendan pul so'rab kelgandir deb, jahli chiqib ketadi. Aslida o'g'lining holidan xabar olishga kelgan otaning maqsadi bunday emasligi, u juda oqko'ngil hamda sodda obraz sifatida gavdalangan. Shu bilan birgalikda, Teshaboy o'zbek otalariga xos bo'lgan barcha fazilatlarini mujassam qilgan obraz bo'lib, ibora vositasida uning xarakteri ochilgan deyish mumkin.

– Tinchib oldim, odam yuboraman! – deb ularning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirdi. [3, 59]



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Asardagi bu farzema esa "yolg'on va'dalar bilan aldamoq." [1, 445] ma'nosini bildiradi. Asarda xuddi shu ma'noni ifodalash uchun ushbu ibora qo'llanilgan. Gap Saidakbar hoji obrazi nutqiga xos bo'lib, rus tuzem paytida u qattiq siquvga olingan, butun boyligi talon-taroj qilinishi paytida o'z yurtini tashlab chet davlatga qochib ketadi. Bu yerda esa faqat qiz tug'ib bergani uchun yomon ko'radigan xotinini va farzand o'rnida ko'rmaydigan uch qizini tashlab, faqat bitta-yu bitta o'g'lini va xizmatkorini olib ketadi. Oilasini aldash voqeasi aks etgan epizodda ushbu ibora qo'llangan.

A'zam ana shu yerda tarvuzi qo'ltig'idan tushgandek bo'ldi. [3, 73]

Bu frazema ham "umidi puchga chiqib, bo'shshamoq" [1, 477] kabi ma'noni anglatadi. Asarda manashu frazemani yaqqol ochib berish maqsadida bunga xos parcha qo'llanilgan. O'sha vaqtda A'zam tog'asining o'lganligini bilib, juda quvonib ketadi, chunki onasidan qolgan merosni undurib olish uchun juda qulay vaziyat vujudga kelgandi. U barcha marosimlarda ham tog'asining oila a'zolari oldida o'zini hamdarddek tutadi, ammo buning aksi edi. Keyin tog'asining o'g'lidan besh ming so'm qarz olib, bu pulni berish muddati yaqinlashganda, onamdan qolgan meros deb turib oladi, lekin tog'asining o'g'li hamma merosni onasi o'lgandan keyin berib bo'lganligini, borib otasidan bu haqida so'rashi kerakligini aytadi. Yuqoridagi ibora ham aynan A'zam o'sha daqiqada o'zini qay holatda his qilganligini bildirish uchun ishlatilgan.

Safdoshtlaridan birortasini tanimaydiki, qo'yniga qo'l solib ko'rsa! [3, 91]

Ushbu ibora, ya'ni frazema "fikir-niyatini bilishga harakat qilmoq." [1, 445] ma'nosini beradi. Romanda ham bu ibora aniq yoritib berilgan qismi mavjud. Bu paytda A'zam chet elga ketish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan edi, u hech kimni shubhaga qo'yimaslik uchun sayohatga ko'p narsalar olmadi. Shu bilan birga, u juda ham qattiq qo'rqayotgan edi, chunki o'sha vaqtda o'zining hamkasblaridan birortasi ham unga sherik bo'lib bormayotgandi. O'zi bilan ketayotganlardan hech birini ilgari ko'rmagandi, bu esa uning xavotiriga, yanada kuchli qo'rquv berardi. Gapda qo'llanilgan frazema asarning aynan shu epizodida qo'llanilgan.

Buning ustiga A'zamning jahli burnining uchida turardi. [3, 94]

Yuqoridagi frazema "Arzimagan narsadan ham tezda tutaqib achchiqlanmoq"[1, 213] ma'nosini bildirib, bosh qahramon A'zamning ketish oldidagi holatini yaqqol ko'rsatib turibdi. Asarda A'zam chet elga chiqayotganidan qo'rqayotganini va yurti, oilasini tashlab boshqa qaytib kelmasligini bildirmaslik uchun juda ham harakat qiladi, lekin xotini uning qo'llari qaltirayotganidan, aytgan gapida biroz duduqlanayotganidan sezib, buni unga aytmoqchi edi, lekin ko'ngliga g'ashlik solib qo'yishidan cho'chib, indamaydi. Shuning uchun ham, u xotini aytgan oddiy gaplardan tutaqib, jahlini bosolmayotgandi. Parchada qo'llanilgan frazema ham bundan dalolat beradi.

Ishining yurishib ketganidan og'zi qulog'ida ekan, Klark yana bir surat ko'rsatdi. [3, 120]

Yuqoridagi ibora ham "behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig'ishtirib ololmaslik" [1, 373] kabi ma'nolarni anglatadi. Asarda ham frazema yana bir parcha orqali



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

yanada yaxshiroq ochib berilgan: Arabistonga qochib ketgan Saidakbar Hoji juda ham boy edi. Amerikaning josuslaridan biriga aylangan o'zbek millatiga mansub Qoplonbek xo'jayini Klarkdan vazifa olish uchun yashirincha baliq oviga boradi. Ularning maqsadi bu Hojini butun oilasi bilan qamoqqa jo'natib, mol-mulkini musodara qilish edi. Qoplonbek bunga rozi bo'lganligini hamda Hojining qalbiga yo'l topa olishini bilib xursand bo'ladi, chunki Saidakbar Hoji o'zbeklarga bo'lgan xurmati cheksiz edi, shuning uchun ham Klarkning kayfiyati a'lo darajaga ko'tarilganligini yuqorida kelayotgan ibora yaqqol isbotlab turibdi.

Osilgan dorining buncha baland ekanini endi butun salobati bilan his qildi va yuragi orqasiga tortib ketdi. [3, 126]

Bu frazema esa "bir lahza ich-ichidan qo'rqish aralash qattiq hayajonlanmoq"[1, 565] ma'nosini anglatadi hamda ushbu frazema qo'llanilgan quyidagi epizod orqali buni bilib olishimiz mumkin. Asarda Qoplonbek Saidakbarning qizi Tamanno orqali u bilan tanishib oladi, Hoji ham xurmat yuzasidan uni o'z uyiga taklif qiladi. Buni esa Qoplonbek bajonidil qabul qiladi va bu uning birinchi muvaffaqiyatli bajargan ishi edi. Uyiga yaqinlashib qolgan Qoplonbekni uyning salobati bosadi va u qo'rqa boshlaydi, agar ishni uddalay olmasa, oxiri nima bilan yakun topishini yaxshi bilardi va buni yuqoridagi ibora orqali bilishimiz mumkin.

–Podadan oldin chang chiqarmanglar! [3, 142]

Ushbu ibora, ya'ni frazema "ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan ilgari gapirib yurmoq" [1, 392] ma'nosini anglatadi, hamda asarda ham aynan shu ma'noda qo'llanilgan hikoya orqali bu ko'rishimiz mumkin: A'zam Fransiyaga injenerlik sohasi bo'yicha tajriba almashish uchun ketgandi. U yo'lda ketayotganda bir odamga duch keladi, o'sha odam A'zamga xuddi yelimdek yopishib oladi, hatto yotoqxonada ham ular birga yotishadi, bu holat uni vahimaga solib qo'yadi. Bir kuni A'zam mehmonxonadan qochib ketadi va politsiya idorasiga boradi, lekin Fransiya razvedkachilari A'zamni qo'lga oladi va o'zlari bilan aldab olib ketishadi. Buni bilgan sheriklari A'zam ketgan taksini topib politsiya idorasiga qidirib borishadi va hamma joyda to's-to'polon boshlashadi. O'sha vaqtda, ularni ko'rgan politsiyachilar, xavotirlangan sheriklarini tinchlantirish uchun aynan yuqoridagi iborani qo'llaydi.

...Attang, tekislikdagi do'nglikday ancha ko'zga tashlanib qolgan edingiz" deb yuragiga vahima soladi. [3, 243]

Yuqoridagi frazema "qo'rqitgan holda o'ylantirib qo'ymoq" [3, 529] ma'noni anglatadi. Romandagi epizodlarning birida esa bunaqa gap-so'zlar Parijga qochib ketgan A'zamning xotini Nafisaga aytilgandi, chunki u erining "vatan xoini" ekanligini bilgach, shu haqidagi gaplar har yoqqa tez tarqab ketadi. Ayniqsa, bu mishmishlar Nafisadan alami bor bog'cha mudiralari, ya'ni raqobatdoshlariga ancha qo'l keladi: har qanday yig'inda yoki bayramda uni oralariga qo'shmas, hatto uni taklif ham qilishmaydigan bo'lishadi. Manashunday ajratilgan kishi ekanligini bildirish uchun dushmanlaridan biri yuqoridagi ibora orqali bunga ishora qilganligini ko'rishimiz mumkin.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

–Sayr qilsa kishining bahri ochiladi. [3, 260]

Bu gapda ishlatilgan frazema “kayfiyatini yaxshilamoq” [1, 57] ma’nosini anglatadi va asarda tabiatni, bog’larni yanada chiroyliroq tasvirlash uchun qo’llanilgan. Xususan, asardagi voqealar ham qizg’in tus oladi, ya’ni Ummatali qamalishidan oldin savho’zda xo’jalik ishlari bo’yicha faoliyat yuritgandi, ammo qamalib chiqqandan keyin savho’z yo’q bo’lib, uni o’rniga shahar barpo etilgandi. Ummatali har joyga borib ko’rmasin, uni hech kim ishga olmaydi, chunki u qila oladigan ishlar shahardagi ishlarga mutlaqo to’g’ri kelmasdi. Bir kuni yaqin do’sti uni yangi ochilayotgan savho’z direktori bilan tanishtiradi va ishga qabul qilishini iltimos qiladi. Bu gap direktorga ma’qul tushib uni savho’zga qabul qiladi. Yuqoridagi ibora ham Ummatalining qanchalik o’z kasbini va uning tabiatga bog’liq xususiyatlarini sog’inganini bilib olishimiz mumkin.

Hayotdagi yangi qoidalar qayta hayotbaxsh nurlarini socha boshlaganidan xabar topgan Shohgado bag’riga shabada tekkandek bo’ldi. [3, 269]

Yuqorida keltirilayotgan frazema “o’zini erkin his etmoq, yaxshi sharoitda yashamoq” [3, 67] kabi ma’nolarni bildiradi va bu ma’noni yanada yaxshiroq anglashilishi uchun romanda quyidagi parcha ham keltirilgan: bu paytda A’zam Fransiya razvedkasining qo’lida haqiqiy “vatan xoini” sifatida taqdiriga tan bergandi hamda ishlash uchun Arabistondagi eng chekka yong’oq zavodiga ishga, ya’ni zaxiradagi ayg’oqchi sifatida jo’natiladi. U yerda ham o’ziga o’xshash odamlar ko’p, shulardan biri Shohgado ismli tojik odam edi. U bu yerda ishlaganiga o’n yildan oshgan, Germaniyaga qarshi urushdan qaytolmay bu yerlarga adashib kelib qolgandi, oilasini esa undan voz kechgan deb hisoblardi. Shunga qaramay, u yurtidagilarga xat jo’natadi va javob kelganidan so’ng juda sevinadi hamda unda umid uchqunlari paydo bo’ladi. Yuqorida qo’llanilgan frazema ham aynan uning o’sha vaqtga xos bo’lgan xursandchiligini yoritib bermoqda.

Kichikkina yig’inda oq yo’l tilashdi. Shohgadoning og’zi qulog’ida. [3, 278]

Ushbu ikki gapda ishlatilgan frazemalarning birinchisi “yo’lga chiqayotgan kishiga xavf-xatarga yo’liqmasligini tilab aytiladigan ibora” [1, 342] va ikkinchisi “nihoyatda xursand” [1, 373] ma’nolarini anglatadi. Yuqorida tasvirlanganidek, romandan shunga xos bo’lgan hikoyani misol tariqasida keltirish mumkin: Shohgado o’z vataniga qaytishning choralari topa boshlaydi va bu yo’lda boshliqlariga nisbatan muomalasi ham o’zgaradi. Buni sezgan Fransiya razvedkasi yolg’ontakam uni uyiga jo’natmoqchi bo’ladi va u ketishidan oldin qalbida cheksiz erkinlik bilan safdoshlaridan suyunchi oladi va aynan ushbu voqea yuqoridagi frazemalar orqali yaqqol isbotini topmoqda. Ammo asarda tub burilish yuz beradi, ya’ni Shohgado ketish oldidan yuvinish uchun hammomga kirganda, uning o’sha joyda o’lganligini qolganlar ham bilishadi.

–Ha, muncha teskari qaraysiz, arpangizni xom o’rdimmi! [3, 297]

Asarda keltirilayotgan navbatdagi frazema esa “Nima yomonlik qildim?!” [3, 46] ma’nosini bildirib, romandagi bir voqea, ya’ni Ummatalining avvalgi xotini Qimmatxon bilan



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024”

ajrashishiga borib taqaladi. Ummatali Nafisaga uylanishni istaydi, vaholanki butun savho‘z ahli hamda Nafisaning o‘zi ham bunga qarshilik bildirmaydi, ammo uning oldidagi yagona to‘siq Qimmatxon xotini edi. Ummatali sudga ajrim xatini berganda, boshida bunga rozi bo‘lgan xotini sudda qarshiligini bildiradi, shunda Ummatali undan juda ham jahli chiqadi, Qimmatxon esa hech narsa bo‘lmagandek fikrini bildirish uchun o‘z nutqida aynan yuqoridagi iborani qo‘llaydi.

Ba‘zi erkaklar kabi og‘zidan adi kirib, badi chiqavermas edi. [3, 301]

Yuqorida qo‘llanilgan farzema ham “beadab so‘zlar bilan so‘kinmoq” [1, 374] ma‘nosini anglatadi, ammo satrda bu ma‘noning aksi sifatida foydalanilgan. Asarda ham aynan inkor ma‘nosini ifodalash maqsadida quyidagi bir parcha keltirilgan: Ummatali savho‘zga ko‘chib kelganda “boy buvi” deb ataluvchi yuvoshgina kampirning uyida yashay boshlaydi. Bir kuni ishdan kelsa, kampir qizlarga o‘zining hikoyasini aytib berayotgandi. Ummatali barchasini eshitib bo‘lgach, bu kampir uch qizi va xotini tashlab ketgan o‘sha boy Saidakbar Hojining ayoli ekanligini va Hojining xizmatkori Qurbonali, o‘sha mehribon, dadasini qachon qaytishini kutib yashayotgan o‘g‘li o‘zi, ya‘ni Ummatalining o‘zi ekanligini bilib oladi. Kampir o‘z erini tasvirlayotganda, u qanchalik yomon bo‘lmasin, barchasini ijobiy tomondan tavsiflaydi va u qo‘llanilgan ibora esa bunga ishora qilish maqsadida foydalanilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Shuhratning ushbu asarida jamiyatdagi ayrim noshukur, o‘z yurti hamda hayotidan noliydigan insonlarni fosh qilishga bag‘ishlangan. Ularning o‘zga yurtlarda jannatda yashagandek oson hayot kechiraman, degan o‘ylari va bu yo‘lda ularning pushaymonliklari esa romandagi qizg‘in tub burilishlar orqali ifodalangan. Asarda qo‘llanilgan frazemalar esa qahramonlarning xarakterini yanada aniqroq yoritib, shu bilan birga, bu obrazlarning xulq-atvorini yaqqol ravishda ochib berishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2022. –B. 8, 46, 57, 67, 213, 342, 373, 374, 392, 444, 445, 477, 529, 565.
2. Yo‘ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. –Samarqand: SamDU. 1998. –B. 8.
3. Shuhrat. Jannat qidirganlar. –Toshkent: “ZUKKO KITOBXON” nashriyoti. 2021. –B. 57, 59, 73, 91, 94, 120, 126, 142, 243, 260, 269, 278, 297, 301.